

**DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINING HUQUQIY MAQOMI**

Boyovut tuman Adliya bo'limi Yuridik xizmat ko'rsatish markazi Boshyuriskonsulti

M.Shodmonova

ShodmonovaMunisa98@gmail.com

Kalit so'zlar: *davlat fuqarolik xizmati, davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligi, davlat fuqarolik xizmati lavozimlari reyestri*

Annotatsiya: *davlat fuqarolik xizmatini zamonaviy standartlar asosida tashkil etish, davlat xizmatchilari ishini natijadorlikka yo'naltirish, aholining davlat xizmatiga bo'lgan ishonchini yanada oshirish, soxaga istiqbolli kadrlarni jalb qilish va ularni professional mutaxassis etib tayyorlashning samarali tizimini joriy qilish*

So'nggi yillarda davlat fuqarolik xizmati tizimining huquqiy tashkiliy va uslubiy asoslarini belgilash, sohaga doir qonun hujjatlarini ishlab chiqish va takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlarning olib borilishi natijasida quyidagilarga erishildi:

“Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan tamoyil amaliyotga joriy etildi hamda davlat xizmatchilari faoliyatining asosiy mezonini etib belgilandi. Prezidentimiz tashabbusi bilan 2022-yilda “Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida”gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonunning amal qilishi Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestriga kiritilgan lavozimlardagi davlat fuqarolik xizmatchilarining faoliyatiga nisbatan tatbiq etiladi.

Shu o'rinda haqli savol tug'ilishi mumkin, ya'ni biz kimlarni davlat fuqarolik xizmatchilari deyishimiz mumkin? **Davlat fuqarolik xizmati** bu davlat xizmatining bir turi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining davlat fuqarolik xizmati lavozimlaridagi davlat organlari vakolatlari amalga oshirilishini ta'minlashga doir haq to'lanadigan kasbiy faoliyatini ifodalaydi.

Davlat fuqarolik xizmati lavozimi esa davlat organining vakolatlarini amalga oshirish uchun Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestriga kiritilgan lavozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi davlat fuqarolik xizmati sohasidagi maxsus vakolatli davlat organidir.

Davlat fuqarolik xizmati tizimi davlat fuqarolik xizmatchilarini markazlashtirilgan tarzda tanlab olish, hisobga olish, joy-joyiga qo'yish, ularning mehnatiga haq to'lash, kasbiy kompetensiyasini oshirish va xizmatda lavozim bo'yicha ko'tarish mexanizmlarining yagona tashkiliy-huquqiy majmuidir.

Belgilangan malaka talablariga muvofiq bo'lgan O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolariga davlat fuqarolik xizmatiga kirish uchun teng imkoniyatlar kafolatlanadi.

Zimmasiga yuklatilgan vazifalarni samarali amalga oshirish uchun kasbiy kompetensiyasini



shakllantirish davlat fuqarolik xizmatchisini qayta tayyorlashni, uning malakasini oshirishni, ta'lim olishini tashkil etish hisobidan ta'minlanadi.

Davlat fuqarolik xizmatchisini tegishli ravishda rag'batlantirish va xizmatda lavozim bo'yicha ko'tarish uning kasbiy kompetensiyalarini hamda alohida xizmatlarini xolisona va adolatli baholash asosida ta'minlanadi.

Davlat fuqarolik xizmatchilariga davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining guruhlariga va toifalaridan kelib chiqqan holda davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining quyidagi malaka darajalari beriladi:

Rahbar kadrlarga Oliy darajali 1-3-darajali maslahatchi malaka darajalari, boshqaruv va mutaxassislariga 1-6-darajali xizmatchi malaka darajalari beriladi.

Amaldagi mehnat kodeksiga ko'ra mehnat intizomini buzganligi uchun ish beruvchi xodimga quyidagi intizomiy jazo choralari qo'llashga haqli:

- 1) hayfsan;
- 2) o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima. Ichki mehnat tartibi qoidalarida xodimga o'rtacha oylik ish haqining ellik foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima solinishi hollari nazarda tutilishi mumkin.
- 3) mehnat shartnomasini bekor qilish

Davlat fuqarolik xizmati to'g'risidagi qonunga ko'ra

Davlat fuqarolik xizmatchisiga nisbatan quyidagi intizomiy jazo choralari qo'llaniladi:
hayfsan;

o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima;

malaka darajasini pasaytirish;

davlat fuqarolik xizmati lavozimini pasaytirish;

egallab turgan davlat fuqarolik xizmati lavozimidan ozod qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mehnat kodeksi
2. Davlat fuqarolik xizmati to'g'risidagi qonun